

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

MUSAYEV AKMALBEK IBRAGIMDJANOVICH

**INGLIZCHA - O‘ZBEKCHA DIPLOMATIYA SOHASIGA OID
TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in
philological sciences**

Musayev Akmalbek Ibragimdjanovich

Inglizcha - o‘zbekcha diplomatiya sohasiga oid terminlarning struktur-semantik tahlili

.....
3

Мусаев Акмалбек Ибрагимджанович

Структурно-семантический анализ англо-узбекских дипломатических терминов

.....
29

Musaev Akmalbek Ibragimdjanovich

Structural-semantic analysis of English-Uzbek diplomatic terms

.....
59

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works

.....
63

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

MUSAYEV AKMALBEK IBRAGIMDJANOVICH

**INGLIZCHA - O‘ZBEKCHA DIPLOMATIYA SOHASIGA OID
TERMINLARNING STRUKTUR-SEMANTIK TAHLILI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma
tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI
Andijon – 2023**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil 2772 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Andijon davlat chet tillari institutining rasmiy veb-sahifasi (www.adchti.uz)da hamda rasmiy “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xoshimova Dildora Madaminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raupova Laylo Rahimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Ergasheva Guli Ismoil qizi
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "_____" kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 5-uy, Tel: (74) 223-42-76, faks: (74) 223-42-76, e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 5-uy. Tel.: (99874) 223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2023-yil "_____" dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Rustamov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya.fanlari doktori (DSc), professor

A.Dj.Ataboyev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

M.E.Umarxodjayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida diplomatiya sohasiga oid termin va leksemalarning ingliz va o'zbek tillari kesimida qiyosiy-tipologik tahlil qilish mazkur tillarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni hamda ikki til terminologiyasining farqli va o'xshash xususiyatlarini aniqlash imkonini bermoqda. Mazkur sohada ilmiy-tadqiqotlar samaradorligining oshishi, olingan natijalarning amaliyotga keng tadbiq etilishida o'sish dinamikasini kuzatish mumkin.

Dunyo tilshunosligida terminologiya sohasining mukammal tarzda tavsifiy va tasviriy jihatlarini o'rganish, to'ldirish va sohani rivojlantirish uchun salmoqli ishlarni amalga oshirish zarurati tug'ilmoqda. Terminologik maydon jihatlari, terminlar semantikasi, turlarini o'rganish, struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash hamda diplomatiya sohasiga oid terminlarning ingliz-o'zbek tillaridagi elektron lug'atini yaratish ham ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Oliy ta'lim muassasalarining diplomatiya yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar o'zlarida ushbu kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishlari va tanlagan mutaxassisliklarini egallashlari uchun ixtisoslik fanlarini chuqur o'rganishlari kerak bo'ladi.

Mamlakatimizda diplomatiya sohasiga oid terminlarni o'rganish, soha mutaxassislarini vazifalari va maqsadlari, ularning xorij tajribasi asosida soha bo'yicha ishlash uslublari, turlari va ish jarayonida qo'llanilishi haqida nazariy bilimlarni, parametrlarini aniqlash bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun ushbu soha terminlarini mukammal o'zlashtirishlari kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2018-yil 5-apreldagi PQ-3654-son "O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbek, rus¹, ingliz va boshqa tilshunoslik sohasida², umumiy va xususiy terminologiya hamda diplomatiya sohasi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan.

Ko'rsatilgan manbalarda diplomatik xujjatlarning faqat tarixiy kelib chiqishi, diplomatik xujjatlarning tuzilish xususiyatlari tadqiq etilgan. Vaholanki, diplomatik terminlarning qo'llanilish ko'lami xujjatlar semantik maydoni bilan chegaralanib qolmasligi barchaga ma'lum. Diplomatik terminlarning nafaqat xujjatlar bilan, balki diplomatik faoliyat, diplomatik personal, xalqaro konferensiyalar bilan bog'liq xususiyatlari va boshqa leksik-semantik jihatlarini o'rganish masalasi birinchi marta mazkur tadqiqot ishida amalga oshirilmogda.

Tilshunoslik fanida diplomatik terminlar masalasiga, diplomatiya sohasi leksikasining shakllanishi va xususiyatlariga bag'ishlangan ishlar ko'p. D.Kulmamatovning³ kitobida diplomatiya sohasi diplomatik hujjatlar prizmasi orqali tadqiq qilinib, XVII asrda faoliyatda bo'lgan diplomatik hujjatlarning morfologik xususiyatlari hamda ularning ruscha tarjimalari qiyosan o'rganilgan, X.Dadaboevning⁴ ilmiy ishida XI-XIV asrlarda qo'llanilgan diplomatiya leksikasi uch guruhga bo'lib o'rganilishi tahlil etilgan, A.Abdullaevaning⁵ nomzodlik dissertatsiyasida rus va o'zbek tillaridagi xalqaro munosabatlar, shu jumladan, diplomatiya va xalqaro aloqalar sohasi terminlarining morfologik hamda leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy metod asosida tadqiq etilgan. Abduxoliq Abdurasul o'g'lining⁶ kitobi xitoy manbalari asosida Farg'ona haqida ilk ma'lumotlar to'plami sifatida yozilgan asar bo'lib, unda Turkiston va Xitoy o'rtasidagi diplomatik, savd-sotiq munosabatlarining tarixiy tomonlari ochib berilgan, I.Zografning⁷ asarida esa mo'g'ul tilining xitoy tili diplomatik va konselyariya terminologiyasining shakllanishidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan; Y.Iserlinning⁸ kitobida rus tilidagi

¹ Антимирова В. Лексико-семантические и деривационные характеристики русской лингвистической терминологии: Дисс. ... канд. филол. наук – Краснодар, 2011. – 223 с.; Гатаулина В. Английская терминология в диахроническом освещении: Дисс. ... канд. филол. наук – Л., 1989. – 16 с.; Колесникова Е. К проблеме становления русской лингвистической терминологии (вторая половина XVIII – первая треть XX вв.): лексикологический и лексикографический аспекты. Дисс. ... канд. филол. наук – Красноярск, 2011. – 191 с.; Кулакова И., Салмина Д. Введение в металингвистику (системный, лексикографический и коммуникативно-прагматический аспекты лингвистической терминологии). – СПб.: САГА, 2002. – 351 с.; Лантюхова Н., Загоровская О., Литвинова Т. Термин: определение понятия и его сущностные признаки. – Вестник Воронежского института ГПС МЧС России // Выпуск 1 (6), 2013; Петросьянц Э. Лингвистическое терминопole: структура, семантика, деривация. – Пятигорск, 2004. – 187 с.; Уткина Л. Функциональные аспекты лингвистической терминологии в разных подходах к изучению языка: Автореф Дисс. ... канд. филол. наук – М.: 2001. – 28 с.

² Yazid A. Towards an interest-based approach to terminological competence acquisition. PhD dissertation.- Ohio: Kent State University, 2017. – 319 p.; Cabre M. Terminology: Theory, Methods and Applications / Ed. Juan C. Sager / - Amsterdam: Benjamins, 1998. – 248 p.; Helmi D., Loening K., Terminology: applications in disciplinary communication. – John Benjamins Publishing Company, 1993. – 250 p.; Jamal Mohamed Giaber. Translating derivational suffixes in linguistic terminology from English into Arabic. PhD dissertation. – University of Edinburgh, 1999; Wright S., Budin G., Handbook of terminology management. – Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2001. – 564 p.

³ Д.Кулмаатов “Среднеазиатские дипломатические документы и их русский переводы в XVII в. (Грамоти, челобитные)” – М.:1994. – С.15

⁴ Х.Дадабоев “Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI–XIV вв.” –Ташкент, 1991. – С.12

⁵ А.Абдуллаева “Лексика сферы международных отношений (на материале русского и узбекского языков)” – Ташкент. 2003. – С.16

⁶ Abduxoliq Abdurasul o'g'lining “Qadimgi Farg'ona tarixidan”. –Toshkent, 2002. – В.28

⁷ И.Зограф “Монгольско-хитайская интерференция (язык монгольской канцелярии в Китай)” –М.: 2004. – С.17

⁸ Й.Исерлин “Лексика и фразеология современных дипломатических документов” – М.: 1966. – С.25

diplomatik hujjatlarda keng qoʻllaniladigan frazeologik birliklarning leksik-semantik, stilistik xususiyatlari frazeologizmlarni tarjima qilishda uchraydigan muammoli tomonlar tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan; F.Molochkovning⁹ kitobida diplomatiya sohasining umumiy jihatlari, diplomatik protokol, diplomatik etiket va diplomatlarning faoliyatiga doir tushunchalar tahlil etilgan va diplomatlar uchun qoʻllanma hisoblanadi; Y.Mouratovning¹⁰ asarida ingliz tilidagi diplomatik hujjatlar va diplomatik korrespondensiyaning stilistik xususiyatlari oʻrganilgan va leksik-uslubiy jihatdan tahlil etilgan; X.Muxitdinova, A.Abdullaevlarning¹¹ kitobida rus va oʻzbek tillaridagi diplomatik hujjatlar turlarining leksik-semantik, funksional-uslubiy tahliliga bagʻishlangan; Q.Omonovning¹² ilmiy ishida uygʻur tilida bitilgan yorliqlar va davlat hujjatlarining lisoniy-uslubiy tahlili oʻtkazilgan; Sh.Teylorning¹³ ilmiy tadqiqot ishlarida rus va ingliz tillaridagi oddiy va maxsus diplomatik, tashqi aloqa hujjatlarining stilistik jihatlari, leksik-uslubiy tomonlari yoritib berilgan; J.Safarovning¹⁴ nomzodlik dissertatsiyasida diplomatiya sohasida keng qoʻllaniladigan frazeologik birikmalarning leksik-semantik xususiyatlari va ularning kognitsiyasi tahlil etilgan; S.Nosirovaning¹⁵ nomzodlik ishi, aynan hozirgi zamon xitoy tili diplomatik terminologiyasining oʻzi tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. S.Mavlyanovning¹⁶ dissertatsiyasida oʻzbek tilidagi diplomatic terminlarning xususiyatlari, turlari va leksikografiyasi tahlil etilgan.

Keltirilgan ilmiy ishlarning aksariyat qismida diplomatik leksikaning diaxronik tahlili oʻtkazilgan. Lekin aynan ingliz va oʻzbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid terminlarning leksik-semantik va struktur jihatlari tadqiqot obʻekti boʻlmagan. **Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bogʻliqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Innovatsiyalarni ingliz tili va adabiyoti talim tizimida joriy etishning muammo va yechimlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va oʻzbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid terminlarni struktur-semantik tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va oʻzbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid terminlarning funksional-semantik xususiyatlarini oʻrganish;

ingliz va oʻzbek tillarida diplomatiya sohasiga oid terminlarni diaxron tadqiq qilish;

ingliz va oʻzbek tillarida diplomatiya sohasiga oid terminlarning mumtoz asarda ifoda etilishini ochib berish;

⁹ Ф.Молочков “Дипломатические протокол и дипломатическая практика” – М.: 1979. – С.22

¹⁰ Й.Моуратов “Diplomatic Documents and Diplomatic Correspondence in English” – М.:2001. – P.67

¹¹ Х.Мухитдинова, А.Абдуллаева “Расмий услубнинг дипломатик ёзишмалари тури” – Тошкент,1997. – В.23

¹² Қ.Омоновнинг “XIV-XV асрларда уйғур хатида битилган имтиёз ҳуқуқини берувчи давлат ҳужжатларининг лисоний-услубий тадқиқи” – Тошкент,1997. – Б.34

¹³ Ш.Тейлор “Деловая переписка и образы документов” – М.: 2004. – С.25

¹⁴ Ж.Сафаровнинг “Структура дипломатического дискурса и его лексико-фразеологические состав (на материале английского языка)” – Самарқанд, 2000. . – С.54

¹⁵ С.Носирова “Ҳозирги замон хитой тили дипломатик терминларининг лексик-семантик ва структур таҳлили” – Тошкент, 2009. – Б.21

¹⁶ С.Мавлянов “Ўзбек тили дипломатик терминлари”. – Тошкент, 2022. – Б.14

diplomatiya sohasiga oid ingliz va o'zbek tillaridagi terminlarni chog'ishtirish orqali struktur-semantik jihatdan tartibga solish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid leksik birliklar va terminlar tanlangan.

Tadqiqot predmeti ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlar, ularning tarkibiy va semantik xususiyatlari, morfologik va funksional-semantik turlari va ularni ifodalash usullaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida onomasiologik tahlil, struktur-semantik tahlil, qiyosiy-chog'ishtirma, tavsiflash hamda kuzatish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid terminologik tizimlarning tadrijiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va hozirgi holati ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatik terminologiyaning diaxron aspektidagi etimologik xususiyatlari aniqlangan va faktik-analitik materiallar asosida dalillangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid terminlarning derivatsion jihatlarini aniqlash orqali ularning leksik-semantik, funksional-semantik va sintaktik hususiyatlari yoritib berilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatik terminlarning tarjima tamoyillari va mezonlari, terminlar tarjimalarining qiyosiy tahlili natijasida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Diplomatiya sohasiga oid terminlarning zamonaviy diplomatiya sohasiga qay darajada bog'liq ekanligini ilmiy asoslanishi, diplomatiya sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar tomonida keng qo'llanuvchi, ommabop hamda nutqimizda uchrayotgan yangi diplomatiya sohasiga doir leksik birliklarning ingliz, o'zbek tillarida shakllanishida o'ziga xos o'xshashlik va farqli jihatlari aniqlangan;

diplomatiya ta'lim yo'nalishlari uchun ixtisoslik bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda, turli xil turdagi lug'atlarda berilgan diplomatiya sohasiga oid terminlarning leksikografik tavsifi, diplomatik terminlarning izohli lug'ati va o'quv lug'atlarini yaratish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma'lumotlarning aniq ilmiy manbalarga tayanilganligi, keltirilgan tahlil hamda natijalarining asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati termin yasash qonuniyatlarini aniqlash va tushunish, formal strukturaning birlik tomonidan ifoda qilinayotgan mazmunga bog'liq ravishda xususiyatlarini o'rganish, leksik nominatsiyalarning terminologik birliklar o'rtasidagi mavjud aloqalar va munosabatlarni, xususan, sinonimiya, antonimiya va omonimiya munosabatlarini o'rganish – bularning hammasi terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish ishida katta ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati diplomatiya sohasida ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtlarida talabalarga dars jarayonlarida foydalanishda, jumladan, diplomatiya sohasida faoliyat olib boruvchilar terminlarni ish jarayonlarida qo'llashda, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, o'quv lug'atlari yaratishda va universitetlarning filologiya fakultetlarida "Terminologiya asoslari" va "Leksikografiyaga kirish" kabi fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy majmualar tayyorlashda, shuningdek, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozishda foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida diplomatiya sohasi terminologiyasini struktur-semantik, funksional-semantik tahlildan olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-OO5 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" (2017 – 2020 y.y.) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani amalga oshirishda ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid terminlarning struktur-semantik hamda pragmatik xususiyatlarini tilshunoslik nuqtai-nazaridan aniqlash, terminlarning leksik-semantik mohiyatini, kognitiv-pragmatik, dennotativ hamda konnotativ, diaxron va sinxron, gender jihatlarini yoritish, ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid terminlarning konseptual talqiniga xos tipologik va differensial belgilar xususiyati, tarjima qilish jarayonida tug'iladigan muammolarni, transformatsion jarayonlarni aniqlab, ularni adekvat o'girishga qulay tarjima usullari bo'yicha ilmiy-nazariy tavsiyalarni shakllantirish hamda tarjimon uslubi va mahoratini badiiy tarjima matnlari vositasida dalillash, ingliz va o'zbek tillarida diplomatiya sohasiga oid terminlarning leksik-ma'naviy, strukturaviy turlarini tasniflash, ularni ifodalash bilan bog'liq belgilarni ko'rsatib berishga doir ilmiy xulosa va natijalardan loyihaning nazariy asosini mustahkamlashda foydalanildi.

Farg'ona davlat universitetida 2020-2022-yillarga mo'ljallangan UZ800-20-GR-0040 "2020 Access Microscholarship Program Fergana State University" xalqaro loyiha doirasida dissertatsiya mavzusi bo'yicha tayyorlangan "Diplomatiya sohasidagi terminlarning variantlilik xususiyatlari tadqiqi" nomli boblari doirasida "Peculiarities of translation of terms in the field of diplomacy" hamda "The Role of Diplomatic Terms in the Development of Linguistics" nomli maqolalari chop etilgan hamda ushbu materiallardan samarali va keng foydalanilgan. (Farg'ona davlat universiteti 2023-yil 5-apreldagi 01-13-34-son ma'lumotnomasi).

Ingliz va o'zbek tillaridagi diplomatiya sohasiga oid terminlarning aks etishiga doir xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DUK "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshtirishlar" muharririyati tomonidan tayyorlangan "Millat va ma'naviyat", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli radioeshtirishlarining 2022-yil fevral va may sonlarida efirga uzatilgan (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2022-yil 10-oktabrdagi 04-36-1698-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot ishida Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asaridagi diplomatik munosabatlar hamda diplomatiya sohasiga oid terminlarning bugungi kun diplomatik munosabatlarga qay darajada bog'liq ekanligi ilmiy jixatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola (2 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Ishning birinchi bobi "**Diplomatiya sohasiga oid terminlar tadqiqining ilmiy nazariy va metodologik asoslari**" deb nomlangan. Bu bobda "Tilshunoslikda termin va terminologiya bilan bog'liq ilmiy- nazariy qarashlar", "Diplomatiya sohasiga oid terminlarning tilshunoslik nazariyasi rivojidadagi o'rni" va "Ingliz va o'zbek tillarida diplomatik terminlarining diaxron tadqiqi" kabi masalalar yoritib berilgan.

Bugungi kunda fan va texnologiya, ishlab chiqarish va raqamli iqtisodiyotning tezkorlik bilan rivojlanib borishi, jahon mamlakatlarida ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar va integratsiya jarayonlari dunyo tillarining o'zaro intensiv ta'sir doirasida leksik lug'at boyligining muttasil ko'tarilishiga zamin yaratadi.

"Termin" so'zi bu "terminus" - o'rta asrlardagi lotin tilida "aniqlash, belgilash", - degan ma'noni anglatadi. Oksford lug'ati mualliflarining fikriga ko'ra, aynan ushbu ma'no ta'siri ostida ingliz tilida "term" – "termin" so'zi shakllangan¹⁷. Termin ma'no jihatidan aynan shu so'zning umumiy jihatlari va barcha xususiyatlarni o'zida jam etganligini ko'rishimiz mumkin. Tilshinos olimlar V.Danilenko, A.Vasileva, O.Mitrofanova, A.Blinkenalar¹⁸ning tadqiqot ishlarida va monografik tadqiqotlarda terminlashtirilgan yoki terminologiyalashtirilgan so'zlar deb ataydilar. Bizga ma'lumki, termin shu sohadagi so'zning maxsus ma'no jihatidan anglatayotgan ma'nosiga ko'ra o'z aksini togan leksik birlikdir. "Har bir

¹⁷ Ткачева Л.Б. Основные закономерности английской терминологии. –Томск, Омск, Изд-во гос. ун-та 1987. – 198 с.

¹⁸ Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – С.24-27.; Васильева А.Н. Курс лекций по стилистике русского языка: Научный стиль речи. – М.: Русский язык, 1976. – С.164-166.; Митрофанова О.Д. Научный стиль речи: Проблемы обучения. Методическое пособие. – М.: Русский язык, 1976. – 38-39.; Блинкена А.Я. Соотношение научных терминов и общеупотребительной лексики // Вопросы разработки научно-технической терминологии. – М.: 1973. – С.115-124.

termining terminologiyasi u yoki bu milliy til tizimining bir qismi hisoblanadi”¹⁹. Olimlar F.Sorokoletov va B.Golovin²⁰lar terminologlarning diqqat markazida eng real terminlarning strukturalari va vazifalarining rang-barangligini kuzatish mumkinligini ta’kidlashsa, V.M.Leychik²¹ esa termin ma’lum til birligi sifatida vazifa bajarishi va sohalarda qo’llanilishi mumkin bo’lgan terminlarning qiyosiy tahlil qilish metodlarining 8 hil sathlarini ajratib ko’rsatadi²². R.Piotrovskiy²³ning fikricha terminologiya lug’at tarkibining boshqa qatlamlari va asosiy so‘z fondi bilan yaqindan bog‘liqligini, avvalo umumiy tildagi so‘z yasash vositalariga oid terminlarni hosil qilishda ko‘rinishini aytadi.

O‘zbek tilshunos olimi P.Nishonov²⁴ termin - bilim yoki faoliyatning maxsus sohasi tushunchasini bildiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi ekanligini shuningdek semantikasi jihatidan maxsus soha doirasi bilan chegaralangan va shu sohaga oid tushunchani ifodalovchi leksik birlikdir ekanligini aytsa, O.Axmedov²⁵ terminning 1)termin – asosan ot so‘z turkumidan tashkil topgan so‘z yoki so‘z birikmasi; 2)termin muayyan tushunchani aniq ifodalaydi; 3)termin asosan o‘zi mansub soha doirasida ishlatiladi; 4)terminda ko‘p ma’nolilikka moyillik mavjud emas deb, to‘rtta belgisiga asoslangan mezonlarni sanab o‘tadi.

Ingliz tilshunosi Teodor Seyvori:“ma’nolari fanda kundalik qo’llanilishdan farq qiladigan so‘zlar. Eng yorqin misollar: fizikadagi “ish”, “kuch”, “quvvat”²⁶, deb baholaydi. Termin bir predmetga tegishli bo‘lib, u ko‘p ma’nolikni talab etmaydi. Ko‘p hollarda bir ma’noda ishlatiladi, faqat ayrim hollarda turlariga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Akademik V.Vinogradovning ta’kidlashicha, “terminni yaratish va aniqlashda ikkita nuqtai nazar mavjud: u yoki bu fan, u yoki bu ishlab chiqarish, u yoki bu hunarmandchilik tushunchalari tizimining rivojlanishi bilan shartlangan “tarkibiy-lingvistik” va “ ma’noviy- semantik”, tarix, madaniy va tarixiy an’analar jihatidan bu ikkala tomon o‘zaro bir-biriga bog‘liqdir”²⁷. Albatta termin yoki fan doirasida yoki ishlab chiqarish doirasida o‘z ahamiyatiga ega bo‘ladi. U lingvistik tomondan aniqlanadi yoki ma’noviy jihatdan, har ikkisida ham shu predmet terminiga ega bo‘ladi va muomala jarayoniga kirib boradi.

¹⁹ Давлетукаева А.Ш. Диахронический аспект развития экономической (английский язык). Дисс.канд. филол. Наук. –М.: 2002.-С.15

²⁰ Сороколетов Ф.П. История военной лексики в русском языке (XI-XVII веков). – Л.: 1970. – С4. Головин Б.Н. О некоторых проблемах изучения терминов // Вестник Моск-го ун-та. Серия 10. Филология. – М.: 1972. – С. 49- 59.

²¹ Лейчик В.М. Шеллов С. Д. Лингвистические проблемы терминологии и научно-технический перевод. Ч.II. Выпуск 18-й. – М.: 1990. – 80 с.

²² Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. – 256 с.

²³ Пиотровский Р.Г. К вопросу об изучении термина // Татаринев В.А.История отечественного терминоведения. Ташкент. 2.: Направления и методы терминологических исследований. Очерк и хрестоматия. Кн.1. -М.: Московский лицей, 1995. -- С.205-206.

²⁴ Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг киёсий-типологик тадқиқи. Автореф.фил.ф. номз. диссер. – Тошкент, 2009. – Б. 17.

²⁵ Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ ва божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол.фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2016. – Б. 255.

²⁶ Savory T.H. The language of science. – London, 1967. –Б. 32-33.

²⁷ Виноградов В. В. Грамматика русского языка. – М.: Высшая школа, 1972. – 237 с.

Diplomatiya sohasiga oid terminlarning tilshunoslik nazariyasi rivojidadagi o‘rni beqiyos albatta, til sathidagi leksik birliklar shakliga ko‘ra mustaqil faoliyat ko‘rsatayotgandek mavjud bo‘lsa ham, ular semantikasi, funksiyasi, stilistik xarakteri, derivativ modellari boshqa jihatlari bilan o‘zaro biri ikkinchisiga turli jihatdan uzviy bog‘liqdir. Tilshunoslikda diplomatik terminlar tadqiqi yuzasidan Naser Falix Moxsin²⁸, X.A.Saidov²⁹, Moxamad Sharaf El'din Abdel'bari Axmed³⁰, A.I.Pencheva³¹ O.G.Ostapenko³², N.S.Nazarova³³, Xa Nargiza³⁴ kabi filolog olimlar hamda I.S.Igdavletov³⁵, Z.A.Chomayev³⁶ singari tarixchi va K.Y.Fedotova³⁷ singari siyosatchilarning tadqiqotlarida mavzuga oid fikrlarni kuzatish mumkin, ammo hanuzgacha diplomatiya sohasiga oid terminlarning struktur-semantik, qiyosiy-tipologik yo‘nalishda, monografik yo‘sinda, xususan, ingliz va o‘zbek tillari misolida maxsus chog‘ishtirib o‘rganilmagan.

Maxsus bir soha doirasida qo‘llaniladigan terminlarning oddiy so‘zlardan farqi borasida ko‘plab olimlarimiz fikr yuritadi, masalan, G.O.Vinokur so‘z va termini farqlashda ularning leksik-semantik xususiyatlariga e‘tibor qaratib, ikki xil ta‘rif bilan yondashgan: 1)terminlarning ma‘nolaridagi (maxsus sohaga nisbatan) xoslik, ma‘no chegaralaridagi aniqlik va ixchamlik; 2)intelektual shaffoflik, ... majoziy va hissiy jihatdan neytrallik³⁸. Albatta olimning bu fikri terminlarning maxsus soha doirasida o‘rganilishida o‘z o‘rniga ega. Bu sohada qo‘llanilayotgan termin shu soha doirasidagina o‘ziga xos ma‘no kashf etadi. Diplomatiya sohasiga oid terminlarni oladigan bo‘lsak, inauguratsiya termini (lot. *augures* dan *inauguro* (qushlarning uchishiga qarab fol ochish) Davlat boshlig‘i lavozimiga kirishishga bag‘ishlangan tantanali marosim. Bunday marosimda xorijiy davlat boshliqlari, diplomatlar ishtirok etadi³⁹. Demak diplomatiya sohasiga tegishli bo‘lgan va shu soha doirasida

²⁸ Насер Ф.М. Дипломатическая терминология русского языка и ее семантизация в учебном двуязычном словаре. Дисс...канд. филол. наук. – Воронеж, 2013. – 197 с.

²⁹ Саидов Х.А. Дипломатическая терминология в таджикском и английском языках. Дисс...д-ра филол. наук. – Душанбе, 2013. – 366 с.: ил. РГБ ОД, 71 14-10/49

³⁰ Мохаммад Шараф Эль дин Абдельбари Ахмед. Язык русской дипломатии в арабском восприятии. Дисс...канд. филол. наук. – М.: 2007. – 155 с.: ил. РГБ ОД, 61 07-10/2049

³¹ Пенчева А.И. Типы межъязыковой эквивалентности в текстах дипломатических документов на русском и болгарском языках. Дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 2014. - 289 с

³² Остапенко О.Г. Сравнительно-сопоставительный анализ дипломатической и административной терминологической лексики (на основе документов дипломатических контактов России и Англии XVI–XVII веков). Дисс...канд.филол. наук. – М., 2015. – 160 с.

³³ Назарова Н. С. Структурно-семантический анализ терминов международного права в английском и таджикском языках. Дисс...канд. филол. наук. – М.: 2013. – 154 с.

³⁴ Ха Наргиза. Дипломатик нутк лексикаси. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори диссер. – Тошкент., 2022. – 139 б.

³⁵ Игдавлетов И.С. Торговая и дипломатическая деятельность российских мусульман Урало Поволжья в XVIII в. Автореф. дисс...канд. истор. наук. – Уфа, 2013. – 196 с.

³⁶ Чомаев З.А. Мусульманская дипломатия в раннеисламскую эпоху: зарождение и особенности функционирования (622-661 гг.). Дисс...канд. истор. наук. – М.: 2021. – 247 с.

³⁷ Федотова К.Е. Культурные аспекты внешней политики Российской Федерации (на примере сотрудничества с ЮНЕСКО). Дисс...канд. полит. наук. – М.: 2017. – 160 с.

³⁸ Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Т. I. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218 – 284.

³⁹ Шамсимухамедов И. Дипломатик терминлар изоҳли луғати. –Тошкент: “Донишманд зиёси”, 2021. – Б.81

qo‘llaniladigan termin sifatida berilayapti. Bir so‘z bilan bu ma‘noni o‘z ichiga olib ixchamlashtiriganini guvohi bo‘lamiz.

Shunisi ham borki, ba‘zi hollarda tadqiqot ob‘ekti hisoblangan terminlarni nafaqat diplomatiya sohasi doirasida, balki “tashqi sferalar”dan (og‘zaki nutq jarayonida, badiiy, ilmiy, hajviy adabiyotlarda) qo‘llaniladigan terminologik birliklardan ham manba sifatida foydalanish mumkin. Masalan: Immunitet. Diplomatik vakillar foydalanadigan alohida huquq va imtiyozlar majmui⁴⁰, deb keltirilsa, biologiya sohasida immunitet (lot. Immunitas - bo‘shatish) - o‘simliklarning zamburug‘, virus va bakterial kasalliklar hamda ba‘zi zararkunanda hasharotlar ta‘siriga berilmaslik xususiyati⁴¹ deb keltiriladi. Har bir soha doirasida o‘z ma‘no mazmuniga ega bo‘lib shu soha doirasiga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Diplomatik terminlar doirasida abbreviatsiya usuli ham mavjud bo‘lib, ular jarayondagi vaqtni tejash va tezroq mazmunli hamda unumli bo‘lishiga ko‘mak beradi. “Diplomatik muzokaralarda abbreviatsiya usuli yordamida hosil bo‘lgan terminlar ham keng qo‘llaniladi. Bunga asosiy sabab vaqt tejamkorligiga intilish, deyish mumkin. Abbreviatsiya usuli yordamida yasalgan diplomatik terminlarning ko‘pi BMT va xalqaro tashkilotlar leksik guruxiga tegishli”⁴². Bularning tahlili jarayonida juda qo‘l kelishi aniqlandi. Paradigmatik munosabatlar asosida diplomatiya sohasiga oid nomlarni ifodalovchi terminlarni 5 turdagi paradigmalarga ajratgan holda tahlilga torilgan. Diplomatiya leksikasi o‘zbek tilida faol rivojlanishi uchun shaxsning diplomatiya va tashqi davlat munosabatlari bilan bog‘liq aqliy faoliyati natijalarini belgilash mantiqan to‘g‘ri keladi. Bugungi kunda o‘zbek tilida diplomatiya leksikasini, leksik birliklarini, xorijiy tillarda qaytadan ko‘rib chiqish tendensiyasi olimlar va ilmiy izlanuvchilar tomonidan ancha nazariy va ilmiy ishlar olib borilayotganligi tahsinga loyiqdir. Umuman olganda bunday astoydil harakatlar o‘zbek tilining sofliğini saqlash, uning asl tabiatini qayta tiklashga qaratilganligi bilan ajralib turadi, shuningdek sohaga oid leksik birliklar jamlanmasining taraqqiy etishida o‘zbek tili bilan birgalikda boshqa tillarning salmoqli o‘rni, leksik birliklarning yasaliş qoliplari, ularning tuzilishi, mazmuni, etimologiyasi va nutqda qo‘llanilishini nazarda tutadigan terminologik izlanishlar olib borishni taqozo etadi. VII-XIV asrlar yozma yodgorliklari matnlarida qayd etilgan dushmanlik, elchi, sulhnoma, elchilik, elchixon, yorliq, sulh, xabar, josus, tashrif, ijozat, qabid, noma, muhr, nishon va boshqa asl o‘zbekcha (turkiy) hamda o‘zlashma so‘z va so‘z birikmalari zamonaviy o‘zbek diplomatiyasi tizimida keng ishlatilmoqda.

Ingliz va o‘zbek tillarida diplomatik terminlarining diaxron tadqiqi masalasi fan va texnikaning jadallik bilan rivojlanishi, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy axborot hajmining ortib borishi natijasida terminologik leksikaning tobora kengayib borish jarayoni bilan izohlanadi. Mazkur jarayon asosida turli sohaga oid terminlarni ilmiy jihatdan o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

⁴⁰ O‘sha asar. – B.80

⁴¹ Абдуллаев А., Мадумаров Т. Биологиядан қисқача изоҳли луғат. – Тошкент, 2016. – Б.134

⁴² Носирова.С.А. “Ҳозирги замон хитой тили дипломатик терминларининг лексик-семантик ва структур таҳлили. Филол.ф.ном. дисс... –Тошкент, 2008.– Б.17.

Amerikalik sharqshunos Edvard Olvort “elchi” atamasining qadimiyligiga va uning zamirida yashiringan keng qamrovli ma’nodarga e’tibor berib shunday deydi: “Markaziy Osiyoda, - deb yozadi u, - diplomatiya g’oyasi balki chig’atoy tilidagi “elchilik” so‘zining ta’siri ostida paydo bo‘lgandir. Bu so‘z “diplomatiyaning faoliyati” yoki yaqin aloqalar” yoxud “qabila (el) ichidagi munosabatlar” ma’nosini anglatadi”⁴³ deb aytadi, diplomatiya tariximiz juda qadim zamonlardanoq turkiy qavmlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, “ellar” orasidagi nizolarga barham berish, o‘zaro yaxshi munosabatlarni yo‘lga qo‘yish tarzida vujudga kelgan va u asta-sekin turkiy qavmlarning o‘zaro bordi keldilaridagi eng yaxshi an’analarini o‘zida mujassamlashtira borib, izchil qonun qoidalarga ega bo‘lgan diplomatik munosabatlar tarzida, ya’ni “elchilar munosabatlari”ga aylangan. Edvard Olvert bu masala yuzasidan o‘z mulohazalarini bayon etar ekan, u Markaziy Osiyoning janubiy qismlarida ayrim hollarda elchi va elchilik o‘rniga “safir” va “saforat” atamalarining ishlatganligiga ham ishora qiladi. Ammo Turkistonning o‘zidan boshqa davlatlarga yuborilgan rasmiy vakillar hamma vaqt “elchi” va “elchilik” deb yuritilgan.

O‘z o‘rnida diplomatik leksikonlarni standartlashtirish borasida 1961-yil 18-aprelda Vena shahrida “Diplomatik munosabatlar va immunitetlar masalalari bo‘yicha” BMT anjumanida Vena konvensiyasi ishlab chiqildi. Bu huquqiy xujjat davlatlar boshliqlari huzuridagi diplomatik vakolatxonalar maqomi va vazifalarini belgilab, davlatlar o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatish tartibi, diplomatik vakolatxona rahbarlarini ta’minlash va chaqirib olishga, mazkur vakolatxona xodimlarining diplomatik maqomlariga, ular va ular oila a’zolariga beriladigan imtiyoz va daxlsizliklarga, vazifa olgan davlatlarga chiqish va kelishga, qabul qiluvchi davlat xududida o‘zlarini qay shaklda tutishlariga oid qoidalardan tarkib topgan bo‘lib, 53 moddadan iboratdir. Shuningdek, diplomatiya leksikasi o‘zbek tilida faol rivojlanishi uchun shaxsning diplomatiya va tashqi davlat munosabatlari bilan bog‘liq aqliy faoliyati natijalarini belgilash mantiqan mos keladi. O‘zbek tilida hozirgi kunda diplomatiya leksikasini, leksik birliklarni, xorijiy tillarida qaytadan ko‘rib chiqish masalasi olimlar va ilmiy izlanuvchilar tomonidan ancha nazariy hamda ilmiy ishlar olib borayotganligi tahsinga sazovordir. Umuman olganda, bunday astoydil harakatlar o‘zbek tilining sofligini saqlash, uning asl tabiatini qayta tiklashga qaratilganligi bilan ajralib turadi, shu bilan birga sohaga oid leksik birliklar jamlanmasining taraqqiy etishida o‘zbek tili bilan birgalikda boshqa tillarning salmoqli o‘rni, leksik birliklarning yasaliq qoliplari, ularning tuzilishi, mazmuni, etimologiyasi va nutqda qo‘llanilishini nazarda tutadigan terminologik izlanishlar olib borishni taqozo qiladi⁴⁴. Ta’kidlash joizki, diplomatik atamalar asosan lotin, ingliz, fransuz tillarida yaratilgan yoki vositachi til sifatida ingliz va fransuz tillari orqali o‘zlashtirilgan⁴⁵. Jumladan, o‘zbek diplomatik terminologiyasi taraqqiyotini hozirgi davrda shu soha termini tarkibiga kirib kelayotgan, hozirda mavjud

⁴³ The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present: A Cultural History (Studies of Nationalities) (Volume 373). – Standford.1990. – P.80

⁴⁴ Дадабоев Х. Ўзбек терминологияси. – Тошкент, 2019. – Б.2.

⁴⁵ Саидов Х.А. Дипломатическая терминология и ее особенности в разносистемных языках. // Вестник университета права, бизнеса и политики. №3 (51). – Худжанд, 2012. – С.222-223.

tushuncha va mazmunlarni ifodalovchi leksemalarsiz jahon diplomatiyasi sohasini tasavvur qilib bo‘lmaydi. Lotin va grek tillarining ahamiyati keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra insoniyat tamaddunining ilk davrlarida yuqori o‘ringa ega bo‘lgan. “Ushbu tillar orqali diplomatiya leksikasi rivojlanishining dastlabki bosqichida xalqaro ziddiyatlarni osoyishta tamoyil asosida hal qilishning muhim vositasi sifatida diplomatik til vazifasini bajargan”⁴⁶. Sohalarda xalqaro miqyosda shu tillar asosida keyinchalik paydo bo‘lgan roman tillariga xos leksika va leksik birliklardan keng foydalanilmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Fransuz tilida a) so‘z termin- *valise, doyen*; b) so‘z birikma termin - *Letters de rappel, charge d’Affaires ad interim*. Jumaniyozov tadqiqotida keltirgan tahlillarga ko‘ra shunga amin bo‘ldikki, lotincha terminlar nafaqat nomterminlar, atoqli otlar, balki ravish, sifat, sifatdosh, ko‘makchi va asosan fe‘l so‘z turkumlaridan iborat.

Diplomatiya leksikasi va leksik birliklarini chog‘ishtirilayotgan ingliz va o‘zbek tillarida quyidagi asosiy **1) sifat + ot; 2) sifatdosh + ot; 3) ot + ot; 4) ot + ot + ot; 5) sifat + ot + ot; 6) sifat + sifat + ot; 7) ot + sifat + ot; 8) sifatdosh + ot + ot; 9) fe‘l + ot** tuzilishlar orqali o‘rganib chiqildi va tadqiqotimizda keng yoritib berdik. Misol tariqasida:

sifat + ot	
Ingliz tili	O‘zbek tili
<i>Statement</i>	<i>Bayonot</i>
– <i>a foreign-policy</i>	- <i>tashqi-siyosiy</i>
– <i>a joint</i>	- <i>qo‘shma</i>
– <i>a verbal</i>	- <i>og‘zaki</i>
– <i>a written</i>	- <i>yozma</i>
– <i>an unfounded</i>	- <i>asossiz</i>
<i>declaration</i>	<i>Deklaratsiya</i>
– <i>a solemn</i>	- <i>tantanali</i>
– <i>a political</i>	- <i>siyosiy</i>
– <i>customs</i>	- <i>bojxonaga oid</i>
<i>treaty</i>	<i>Shartnoma</i>
– <i>a basic</i>	- <i>asosiy</i>
– <i>a binding</i>	- <i>majbur</i>
– <i>a collective</i>	- <i>jamoaviy</i>
– <i>an international</i>	- <i>xalqaro</i>
– <i>a peace</i>	- <i>sulh</i>
<i>act</i>	<i>Akt</i>
– <i>final</i>	- <i>yakuniy</i>
– <i>legal</i>	- <i>huquqiy</i>
– <i>unfriendly</i>	- <i>noxayrixohlik</i>
– <i>unlawful</i>	- <i>g‘ayriqonuniy</i>
– <i>hostile</i>	- <i>dushmanlik, adovatli</i>
– <i>constituent</i>	- <i>ta‘sis</i>

⁴⁶ Криворот В.В. О некоторых особенностях дипломатической терминологии в английском языке. – Минск, Электронная библиотека БГУ: Общественные науки, Языкознание, 2017. – С.13.

Har bir terminologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi ayni shu sohaning tarkib topib, taraqqiy eta borishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sohaviy jihatdan o‘ziga xoslik kasb etadi. Shu ma’noda, ingliz va o‘zbek tili diplomatiya sohasi terminologiyasining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o‘z taraqqiyot yo‘li, genetik asoslariga ega.

Ishning ikkinchi bobi “Diplomatiya sohasiga oid terminlarning struktur-semantik tadqiqi va tartibga solish muammolari” deb nomlanib, ushbu bobda “Ingliz va o‘zbek tillarida diplomatiya sohasiga oid terminologiyani onomasiologik o‘rganish”, Diplomatiya sohasidagi terminlarning variantlilik xususiyatlari tadqiqi” va “Diplomatiya terminologiyasini tartibga solish muammolari” kabi masalalar keng yoritib berilgan.

Diplomatiyaga oid terminlarning struktur-semantik jihatiga ko‘ra termin sifatida shakllanishi, uning tarkibiy qismi bo‘lmish metafora va metonimiya kabi ma’no ko‘chish usullari asosida paydo bo‘lgan atamalarni o‘z ichiga oladi, masalan, pasportlarini berish, berish yoki tasdiqlash vakolatiga egaligi kabi.

Tadqiqot tahlillarimiz natijasi shuni ko‘rsatadiki, diplomatiya sohasiga oid terminlarining metafora usuli asosida shakllanishi quyidagilarni nazarda tutadi: 1) maxsus tushuncha va umumiy ma’lum tushunchani taqqoslanishi; 2) ushbu ma’lum tushunchani ifodalaydigan so‘z bilan maxsus tushunchani belgisi ko‘zda tutilishi. Terminlarni chog‘ishtirish yagona belgiga ko‘ra va bir nechta tushunchalarning o‘xshash tomonlari yoki jihatlari bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin⁴⁷. Darxaqiqat terminlarni chog‘ishtirishda ham albatta bitta asosiy belgi muhim o‘rin tutadi, bu belgiga ko‘ra tovushlarni o‘xshash yoki farqli jihatlari ko‘rsatib beriladi. Ularning asosiy jihatlarni ochib berishda bu tomonlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Persona non grata -Persona non grata. A Latin phrase meaning “unwelcome person”. As a legal term, it refers to the practice of a state prohibiting a diplomat from entering the country as a diplomat, or censuring a diplomat already resident in the country for conduct unbecoming of the status of a diplomat. (Lotincha ibora “nomaqbul odam” degan ma’noni anglatadi. Yuridik atama sifatida bu davlatdagi diplomatning diplomat sifatida mamlakatga kirishini taqiqlash yoki mamlakatda yashovchi diplomatni diplomat maqomiga to‘g‘ri kelmaydigan hatti-harakatlari uchun qo‘llash amaliyotini anglatadi.

Izlanishlarimiz asosida, soha terminologiyasida ma’no ko‘chishini asosan uch tasnifga ajratdik. Jumladan: a) nomning shakli va funksiyasining o‘xshashligi bilan uzviy bog‘liq ma’no ko‘chishi. Masalan:

Smart power-Aqlli kuch, The flexible and combined use of hard power – military force or economic sanctions – and soft power – diplomatic and cultural influence – to overcome a foreign policy challenge (tashqi siyosat muammosini yengish uchun qattiq kuch – harbiy kuch yoki iqtisodiy sanksiyalar va yumshoq kuch-diplomatik va madaniy ta’sirdan moslanuvchan va birgalikda foydalanish.

⁴⁷ Николаева О.А. Терминология текстильного материаловедения. Автореф. дисс....канд .филол. наук. – Иваново, 2006. – С.16

M.T) Metonimiya asosida “tildan tashqari voqelik ob’ektlarining nolisoniy xarakteristikalari va ular o’rtasidagi paradigmatic munosabatlarning ayrim tiplarini aks ettirish sababli paydo bo’lgan doimiy umum ma’lumotlar yotadi⁴⁸.

b) nomning xususiyatlari va sifati bilan bog’liq ma’no ko’chishi: AKKLAM ATSI YA. (lot. *acclamatio* - qichqiriq, hayqiriq) akklamatsiya diplomatik amaliyotda, shuningdek, ba’zi parlamentlar, konferensiya, s’ezd, forum va boshqalarda reglament bo’yicha ovoz berishni o’tkazmasdan qaror qabul qilish usulini anglatadi. Qaror ishtirokchilar reaksiyasi, ya’ni masalaga munosabatlari: xitoblar, qarsaklar, joylaridan aytilgan luqma va mulohazalardan kelib chiqqan holda qabul qilinadi. O’tkazilayotgan tadbirlarning rasmiy bayonnoma (protokol)larida, odatda, “qaror akklamatsiya yo’li bilan qabul qilinadi”, degan belgi qo’yiladi.

A.F.Juravlev terminlarga xos bo’lgan muntazam metonimik ko’chimlarni mutatsiyalarga, ya’ni muntazamligi, standartliligi bilan xarakterlanadigan, ammo tilda uning sohibiga sezilmasdan yuzaga keladigan nominatsiyalarga ajratadi.⁴⁹

c) nomning xususiyati bilan bog’liq ma’no ko’chishi: diplomatik audiyensiya. (lot. *audientia* - eshitish). Davlat rahbari, hukumat rahbari, tashqi ishlar vaziri yoki boshqa hukumat a’zosi tomonidan diplomatik vakilni qabul qilish. Mahaliy protokol qoidalari, diplomatik vakilning klassi (q.: Diplomatik klasslar va ranglar) va audensiya xarakteridan kelib chiqib, qabul tantanali yoki protokol marosimisiz o’tkazilishi mumkin. Davlat rahbariga o’z ishonch yorlig’ini topshirayotgan xorij diplomatik vakil qabuli tantanali ravishda o’tkaziladi.

d) insonning fiziologik, psixologik va uning ijtimoiy hayoti nomi bilan bog’liq ma’no ko’chishi: **Cunning-ayyorlik**, showing inventiveness and skill In the 11th century during the Song Dynasty (960–1279), there were cunning ambassadors such as Shen Kuo and Su Song who achieved diplomatic success with the Liao Dynasty, the often hostile Khitan neighbor to the north. (Ixtirochilik va mahorat ko’rsatish. XI asrda Song sulolasi davrida (960–1279) Shen Kuo va Su Song kabi ayyor elchilar bo’lgan, ular shimoldagi ko’pincha dushman bo’lgan, xitan qo’shnisi bo’lgan Liao sulolasi bilan diplomatik muvaffaqiyatga erishgan).

Diplomatik xujjatlar rasmiyligi va ahamiyatliligi sababli unda badiiy ekspressiv elementlarni yo’q deb hisoblash to’g’ri emas. Albatta shu elementlar ma’lum jihatlan rasmiy xujjatlarga qo’yiladigan umumiy talablarga bo’ysinadi va chegaralanadi. Diplomatik xujjatlarda uchraydigan ekspressiv va obrazli xususiyatlar uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga barcha davlatlardagi diplomatik xujjatlarda qo’llaniluvchi “xalqaro” obrazlilik usullari kiradi. Xalqaro diplomatik amaliyotda davlatlar poytaxtlarni ko’chalar yoki binolar metonimiya yo’li bilan biror bir davlat yoki tashqi ishlar vazirligini ifodalash ushbu turdagi usullar qatoriga kiradi. Masalan, “[The White House](#)” AQSh hukmati yoki Prezidenti tushunchasini ifodalaydi, chunki ushbu binoda AQSh prezidenti qarorgohi mavjud; “Downing Street” Angliya bosh vaziri tushunchasini bildiradi, chunki mazkur

⁴⁸ Языковая номинация: виды наименований. кн. II. – М.: Наука, 1977. – С.100.

⁴⁹ Журавлев А.Ф. Технические возможности русского языка в области предметной номинации / Способы номинации в русском языке / Под ред. Д.Н. Шмелева. – М.: 1982. – С.47.

ko'chada Angliya Bosh vaziri qarorgohi bor; "[Élysée Palace](#)" Fransiya hukumati tushunchasini ifodlab, u joyda Fransiya prezidentining qarorgohi joylashgan.

Ikkinchi guruhga ham xalqaro diplomatiyada qo'llaniluvchi obrazli ifodalarni kiritishimiz mumkin. Lekin birinchi guruxdan farqli o'laroq, ushbu guruxga taaluqli badiiy-ekspressiv so'zlar xalqaro siyosatdagi ma'lum hodisalar yoki doktrinalarni ifodlaydi. Masalan: "sovuq urush" ingliz tilida "cold war" iborasidagi "sovuq" so'zi ko'chma ma'noga ega bo'lib, "tajovuzlar" "g'arazli" degan tushunchani hosil qiladi.

Uchinchi guruxga kiruvchi badiiy ekspressiv til vositalari xalqaro diplomatik xarakterga ega emas va ular turg'un bo'lmaydi. Ular faqat biror-bir davlat tilidagi diplomatik xujjatlarga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Rasmiy ish yuritish uslubining bir turi bo'lgan diplomatik xujjatlar tilidagi 6 hil o'ziga xos xususiyatlar kuzatiladi va bular tadqiqot ishimizda ko'rsatilgan. Diplomatik tilning rasmiyligini ko'plab passiv konstruksiyalarning qo'llanilishi tasdiqlaydi. Lekin diplomatik tildagi turli matnlarni qiyoslab, bayonot, memorandum, verbal nota, rezolyusiya kabi diplomatik xujjatlarda passiv konstruksiyalarni qo'llanishi keng tarqalmaganiga iqror bo'lamiz.

Diplomatiya sohasidagi terminlarning variantlilik xususiyatlari tadqiqi jarayoniga dahldor bo'lgan muammolar, terminlarni o'rganishda tub qonuniyatlarni aniqlash nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadi va shu bilan birga istiqbolga ham egadir. Ushbu jarayonga oid ma'lumotlar ko'pgina tilshunoslar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, jumladan, G.A.Ivanova, V.A.Ikonnikova, E.M.Kakzanova va boshqalar⁵⁰ tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin.

XX asrning 60-yillarida terminlarning muqobil variantlariga, shuningdek terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish jarayonidagi semantik muqobillari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish muhim masalaga aylandi. Natijada terminlar leksikasini me'yorlashtirishga ya'ni mo'tadillashtirishga bag'ishlangan aksariyat ishlarda sinonimlar kamligi yuzaga kelgan, unga nisbatan keskin cheklash talablari an'anaviy ravishda ilgari surilgan, chunki turli xil terminlardan foydalanishda mutaxassislarning bir-birini tushunishida muammolari paydo bo'la boshladi. Ya.A.Klimoviskiy fikricha terminning bir ma'noliyligini "termin bilan ifodalangan tushunchaning o'zgarishiga bog'liq bo'lgan xususiyatlariga nisbatan vaqtinchalik", - deb bilgan. Sinonimik leksik birliklar, tushunchalar tilda keng tarqalgan bo'lib, ular so'z boyligini qanday qo'llash natijasida sodir bo'lgan jarayonlardir. Tahlillarimiz asosida, ma'nodoshlik munosabatlarni shakllantirish manbalarini o'rganib, biz quyidagilarni ajratish lozim deb bildik: leksik qatlamlarning o'zaro ta'siri, o'zlashtirish jarayonlarining o'zaro

⁵⁰ Иванова Г.А. Словообразовательная вариантность и норма в метаязыке лингвистики// Г.А.Иванова// Вестник Нижегородского университета им.Н.И.Лобачевского. – Нижегород, 2010. – №4(2). – С.519-521; Икконикова В.А. Становление и развитие англоязычной юридической терминологии (лингвокультурологический аспект) / В.А.Иванова. – Одинцово: АНОО ВПО ОГИ, 2013. 391 с; Какзанова Е.М. Лингвокогнитивные и культурологические особенности научного дискурса (на материале математических терминов-эпонимов) / Е.М.Какзанова: автореф. Дис. ... д-ра филол.н. – М.: 2011. – С.46

ta'siri, so'z yasash jarayonlari, so'z variantlarini farqlash, leksiklashtirish va boshqalar.

XXI asr diplomatik sohani rivojlanishi, soha leksik qatlamining ilmiy terminologiyasini to'ldirilishini taqozo etdi. Biroq, yangi so'zlarning yasalishi yoki kirib borishi yo'li bilan emas, balki eski tayanch nomlar asosida paydo bo'lgan ko'p sonli turli xil terminologik tushuncha va iboralarni qayta shakllantirish jarayoni orqali yuzaga keldi.

Bir tomondan, sinonimiya muammolarini o'rganish katta mehnatni talab qilsa, ikkinchi tomondan, S.V.Grinevning sinonimiyani o'rganish metodini asos qilib olgan holda, asosiy terminlardan foydalanish, tartibga solish, qolaversa, tushunchalar va terminalarning tasniflash kabi muammolar yechimini topishga harakat qilamiz⁵¹. Bizningcha, mazkur metod diplomatiya sohasi terminologiyasini o'rganishga doir bilimlarning mavjud vaziyatini aks ettirishda samaraliroqdir.

Diplomatiya sohasida turli xil dubletlarni (mutlaq sinonimlarni) o'z ichiga oladi, unda borliqni belgilash uchun ikkita tizim mavjud: 1)og'zaki nutqda - *accord-kelishish, concurrence of opinion*. 2)ramziy UN Declaration on the Elimination of All Forms of Racial Discrimination. Biz ko'rib turganimizdek, deklaratsiyaning ushbu qismida rasmiy leksika sifatida quyidagi so'z birikmalari yetakchi mazmunini ifodalayapti:Principles of the dignity and equality, basic objectives, international cooperation, respect for human rights, fundamental freedoms va *boshqalar*. *Boshqacha qilib aytganda, ushbu so'z va so'z birikmalariga lug'atda mustahkam o'rnashib olgan ekvivalentlar mavjud*.

Dubletlar o'rtasida variatsiya munosabatlari doim mavjud va variant nomlarning lingvistik maqomini aniqlashda ularni sinonim turlaridan biri sifatida tavsiflash mumkin. Shartli sinonimlar struktur jihatdan bir xil bo'lmagan, ammo o'xshash ma'noga ega bo'lgan terminlar bo'lib, ularni muayyan vaziyat, sharoitlarda bir xil ma'nosiga tayanib muqobili sifatida qo'llashga imkon beradi. Shartli sinonimlarning tasnifi quyidagilardan iborat: *qisman-sinonimlar* – tarkibining ma'lum qismi sinonim hisoblanadi, *matnli sinonimlar* – kontekst asosida sinonimiya vujudga keladi, matn tarkibida birinchi marta *turli xil tushunchali sinonimlar* larga ega, bular ishda misollar bilan batafsil yoritib berilgan.

Diplomatiya sohasida keng qo'llaniladigan terminlarni tartibga solish va tarjimasining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish, har qaysi sohaning terminologik tizimini tartibga solish, bir nechta amaliy ishlarni o'z ichiga qamrab oladi, xususan, diplomatiya sohasi ham bundan mustasno emas. Bu ishlar tartibi quyidagicha: mutaxassislar tomonidan standartlashtirilgan (muvofiqlashtirilgan) shakl (struktura) va mazmunda majburiy foydalanish maqsadida, terminlarni tartiblash, unifikatsiya qilish, uyg'unlashtirish jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Terminlarni bir xillikka, yagona shaklga yoki tizimga keltirish bilan bog'liq bo'lgan tartibga solish jarayoni, terminologiyani unifikatsiya qilish jarayoniga oid bajarilgan yoki bajariluvchi amaliy ishlarning asosiy tarkibiy qismidir degan fikr mavjud⁵². Shuningdek, V.P.Danilenko, "terminologik jarayonlarni normativligi jihatidan terminologiyani umumlashtirish orqali tahlilga tortib, unifikatsiya

⁵¹ Гринеv С.В. Введение в терминологическую лексикографию. М.: 1986. – С.35

⁵² Гринеv-Гринеvич С.В. Очередные задачи отечественного терминоведения //Научно-техническая терминология. Вып. 1. М.: 2006. – С.47

terminologiyani tartiblashga olib keluvchi dastlabki ish deb hisoblaydi⁵³. L.Yu.Belaxovning fikriga ko'ra, terminologiyani tartiblashdan farqli o'laroq standartlashtirish (muvofiqlashtirish) nafaqat terminlarning bir ma'noligini o'rnatadi va ularning ta'riflarini aniqlaydi, shu bilan birga, terminlarni bir tizimga solish uchun katta hissa qo'shadi, tilshunoslik sohasining keng doiradagi mutaxassislarini terminologik ishlarga jalb qilishni ta'minlaydi va standartlashtirilayotgan (muvofiqlashtirilayotgan) termin (neologizm, okkasionallar, yangi leksik birlik)larni joriy qilish ustidan nazoratni ta'minlaydi⁵⁴.

Bugungi kun diplomatiya sohasida ham bu kabi yechim talab, bahs talab jarayonlar mavjud. So'nggi asrning ikkinchi yarmida, diplomatik aloqalarni taraqqiyoti ta'sirida, diplomatiya sohasiga oid terminlarni tartibga solish va standartlashga doir ishlar bir qator dunyo tilshunos olimlari tomonidan o'rganilgan. Jumladan, A.Abdullayeva, X.Dadabayev, Z.O.Jumaniyozovlarning tadqiqot ishlari paydo bo'ldi.

Standartlashtirish (muvofiqlashtirish) boshqa sohalarda bo'lgani kabi, diplomatiya sohasida ham milliy va xalqaro darajada amalga oshiriladi.

Bunday ulkan ma'suliyat tarjima jarayonida til vositalarining to'g'ri tanlanishini talab qilinadi. Bu turdagi hujjatlar tarjimasi amaliyotida nafaqat umumiy mazmun va uslubni yetkazib berish, balki ma'lum jihatdan manba matnining o'zini yetkazib berish tendensiyasi ham mavjud.

Deklaratsiyaning ushbu qismida rasmiy leksika sifatida quyidagi so'z birikmalari yetakchi mazmuni ifodalayapti: Principles of the dignity and equality, basic objectives, international cooperation, respect for human rights, fundamental freedoms va boshqalar. *Boshqacha qilib aytganda, ushbu so'z va so'z birikmalariga lugatda mustahkam o'rnashib olgan ekvivalentlar mavjud.*

Tabiiyki, har bir aniq holatda ekvivalentlar qatoridan to'g'ri keladigan so'zni tanlab olish matn kontekstiga bog'liq bo'ladi. Barcha rezolyusiyalar preambuladan boshlanib, ularning asosini sifatdosh I (Participle) tashkil etadi. Masalan: *Having taken cognizance* - e'tiborga olgan holda; *Concluding* - xulosaga kelgan holda; *Having discussed* - muhokama qilgan holda va boshqalar.

Rezolyusiya matnlarida uchraydigan sinonimlar ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinganida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi: *Noting* - e'tiborga olgan holda; *Taking note* - ...ni ta'kidlab o'tgan holda. Ba'zida esa ingliz tilidagi bir qator so'z va so'z iboralari o'zbek tilida bir variantga ega bo'ladi: *Bearing in mind* (having in mind), *keeping in mind* - e'tiborga olgan holda, yoki aksincha, ingliz tilidagi bir leksik birlikka o'zbek tilidagi bir necha leksik birlik to'g'ri keladi: *Affirming* - (hujjatlarni, sarorlarni) bildirgan holda, ta'kidlagan holda, tasdiqlagan holda; ...hatida ma'lumot bermos, qo'llab-quvvatlamoq.

Hujjatlar boshlanishida ma'lum ish-harakat yoki holat mavjudligi, qoidaga binoan o'zgacha stereotipi talab qiladi. Masalan, ingliz tilidagi *believing* o'zbek tilidagi ...*deb hisoblab* ga to'g'ri keladi. Lekin *believing* yoki boshqa sifatdoshdan oldin biror bir ravish so'z kelsa, bu holda uning tarjimasi ma'lum jihatdan o'zgaradi.

⁵³ Даниленко В.П. Русская терминология (Опыт лингвистического анализа). М.: 1977. – С.54

⁵⁴ Белахов Л.Ю. Состояние и перспективы развития работ по стандартизации терминологии. – М., 1981.

Masalan: Firmly believing - *qattiq kuyungan holda*; Concerned - *havotirlangan holda*; Deeply concerned - *chuqur hovotir ifodalagan holda*; Appealing - *chaqirgan holda*; Strongly appealing - *qat'iy undagan holda*. Diplomatiya hujjatlardagi so'z va iboralarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida o'zbek tilining qabul qilingan so'z birikmalar yasash qoidalariga rioya etish lozim. Masalan, *expressing its profound concern - chuhur havotir olib*; Expressing its deep disappointment - *havsalasi pir bo'lgan holda*.

Ba'zi hollarda tarjima konstruksiyasining huquqiyatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan: Agrees + that to +inf - *qaror qiladi*; Agrees + to - qabul qiladi; Agrees + with - rozilik bildiradi. Diplomatiya tilida keng qo'llaniladigan atama va iboralarni ko'rib chiqaylik: Two international covenants - *ikki xalqaro pakt, opening words-xat boshi, Opening meeting - birinchi (boshlovchi) majlis*

International so'zi qo'llanilgan so'z birikmalarini tarjima qilish jarayonida tarjimon o'zbek tili atamashunosligining rasmiy ish yuritish uslubiga xos xususiyatlarga tayanadi. Masalan: International tensions - *xalqaro munosabatlarning keskinlashuvi, International thaw - xalqaro munosabatlarning yaxshilanishi va boshqalar*.

Diplomatik hujjatlarni tarjima qilish jarayonida qator vaziyatlarda hujjat matnini noto'g'ri tushunishligini va ko'p ma'nolikni oldini olish maqsadida tarjimon kontekstual ekvivalentlarni izlamay, balki matnda ifodalangan so'zlarni so'zma-so'z tarjima qilish yo'lini tanlaydi. Ko'p holatlarda so'zma-so'z tarjima turli xil xalqaro tashkilotlarning nizomlari, bitim va shartnoma matnlarini tarjima qilish jarayonida qo'llaniladi. Agar ushbu ingliz tilidagi terminlar so'zma-so'z tarjima qilinmasdan, kontekstual ekvivalentlar yordamida tarjima etilsa, ma'lum jihatdan ularni noto'g'ri interpretatsiyasi yuzaga keladi. Masalan: *People of good will - yaxshi niyat odamlari, Good will mission - yaxshi niyat missiyasi, With in the frame work of the Security Council - Havfsizlik Kengashi doirasida*.

Umuman olganda, diplomatiya hujjatlarda ko'plab *qolip* bo'lgan so'z va iboralarning qo'llanilishi oddiy hol bo'lib qolgan. Masalan: High contracting parties - *oliy toifadagi bitim tizuvchi tomonlar*; On behalf and instruction of-nomidan yoki topshirigiga muvofiq; To beg to in foring someone -*habar berish sharafiga ega bo'lmoq* va boshqalar. Xulosa sifatida shuni aytish joizki, mazkur turdagi hujjatlar tarjimasi ichamligi va mazmun mohiyati aniq yetkazib berilishini talab qiladi.

Tadqiqotning uchinchi bobi "Boburnoma" matni tarjimalarida diplomatiya sohasiga oid terminlarning leksik-semantik tadqiqi" deb nomlanib, bu bobda "Boburnoma" matnida diplomatiya soha terminologik birliklarining berilishi, Bobur diplomatiya munosabatlarning tarjimalarda aks etishi va diplomatiya sohasiga oid terminlar tarjimasining mezon va tamoyillari keng yoritib berilgan.

XVI asr Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda Boburiylar davlati barpo etish jarayonidagi diplomatiya munosabatlarga alohida ahamiyat bergan hamda buni uddalagan. Masalan, "Xisravshoh, Boqi Chag'oniyoniy, Muhammad Sharif munajjim, bir necha hind harbiy sarkardalari, rojalari unga qarshi qo'lida qilich bilan kurashganlar, shungdek ko'plab ochiq diplomatiya siyosat yurgizganlar. Shunda ham, ular joniga ozor bermay mol-mulklari, ahlu ayollari va lashkarlari bilan boshqa yurtlarga ketishlariga Bobur ijozat berganligi uning mard ekanligidan dalolat

beradi”⁵⁵. Darxaqiqat Bobur bir xalqni manfaatlarini, ularni urf-odatlarini va diniy aqidalarini har vaqt hurmat qilgan hamda ularga bu borada hech bir zarar yetkazmagan. Bu ham bo’lsa Boburning mohir diplomat ekanligidan dalolat beradi.

Ammo shunday vaziyatlar ham bo’lganki, Boburning bunday oqilona siyosati va uning yumshoq diplomatik munosabatlari har doim ham muvaffaqiyat olib kelavermagan, ayniqsa Hindistondagi mahalliy sharoitning juda ham murakkab tarzda ekanligi, notanish bo’lgan hind xalqining urf-odati va qadriyatlarini yangi kelgan chog’ida yaxshi bilmaganligi, ularning shart-sharoitlariga moslasha olmaganligi hukmdor uchun qiyinchiliklarga olib kelgan. Ayrim paytlarda xalqni birlashtirish, osoyita hayot kechirishlarini ta’minlash maqsadida murosasozlik siyosatini olib borish, ma’lum darajada chekinish zarur ham bo’lganki, bu keying muvaffaqiyatlarga yo’l ochib bergan, desak mubolag’a bo’lmaydi. Masalan, Hasanxon Mevatiy misolida ko’radigan bo’lsak, Bobur ko’zlagan maqsad teskari natija bilan tugaganiga guvoh bo’lamiz. Chunki, Boburning nazdida, har bir hind sardori, rojasi yoki viloyat boshlig’iga qattiqqo’llik bilan munosabatda bo’lish – faqat yangidan-yangi qarama-qarshiliklarni tug’dirishi ma’lum bo’lardi. Bobur Hindistonning tog’ oralig’idagi Mevat atalmish joyi va uning aholisi haqida “Boburnoma”da: “Dehli sultoniga nimkora itoat qilurlar ekandur”- deb yozadi. U yerga borgan Bobur asrlar bo’yi xalq turmush tarziga singib ketgan tartibni birdaniga o’zgartirish mumkin emasligini anglab yetadi, shu sababli bo’lsa kerak bu viloyat aholisiga ma’lum miqdor xiroj solib, boshqaruvni mahalliy aholi vakili ixtiyoriga qoldiradi. Bu Boburning o’z raqibidan hayiqishi emas, balki mavjud sharoit bilan hisoblashishi, yuksak diplomatik mahorati, Hindistonda saltanat yurgizishning oqilona yo’lidir. “Bobur Hindiston xalqining tarixi, etnografiyasi, madaniyatini chuqur o’rganadi, natijada tog’ oralig’dagi viloyatni qattiqqollik bilan bo’ysundirishni ma’qul ish deb, bilmaydi va bu masalada mantiqiy xulosa chiqaradi⁵⁶. Bizningcha ham Boburning bu rejaları to’g’ri, chunki aholi bunday boshqaruv tizimiga va munosabatlarga o’rganmagan, Boburning bunday diplomatik munosabatlari shu xalqni xukmdorga nisbatan hurmatini oshirishga xizmat qilishi maqbul yo’llardan biridir. Boburning davlatchilik va diplomatiyasi mavzui ko’p jihatdan uning Shayboniixoniga bo’lgan munosabati bilan bog’liq. Bobur har bir boshqaruv strategiyasida o’ziga xos diplomatik munosabatlarni yo’lga qo’ygani dushmanlari bo’lgan afg’onlar masalasida ham yaqqol ko’zga tashlanadi. Shu bilan birga Boburning Eron davlati bilan munosabatlarini tahlil qilsak, ikki davlat o’rtasidagi aloqalar do’stona va xayrixoh tamoyillida bo’lganligiga amin bo’lamiz. “1526-yili Xoja Asadning Tahmasp saroyiga elchi qilib yuborganligi va shu yilning o’zida Eron shohi turkman millatiga mansub Sulaymon nomli vakilining Hindistonga kelganligi bilan tasdiqlanadi. Umuman olganda, Tahmaspning Shayboniixoniga bo’lgan munosabati va uni jangda tor-mor keltirganligi haqida “Boburnoma”da qayta-qayta yozishi, Boburning Xuroson-Turondagi voqealarni

⁵⁵ Qudratullayev H. “Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi”. – Toshkent: “Sharq” 2011. –B.393

⁵⁶ Qudratullayev H. “Boburning davlatchilik siyosati va diplomatiyasi”. – Toshkent: “Sharq” 2011. – B .394-395

zo‘r qiziqish bilan kuzatganligini ko‘rsatadi”⁵⁷. Xaqiqatan ham “Boburnoma”da keltirilgan voqealar tafsilotida Boburning qanchalik tarzda diplomatik munosabatlarni o‘rnatishga intilishi, qaerda bo‘lmasin barcha holatda o‘ziga xos yondashuv bilan shu xalqni ya‘ni millatni bir-biriga bo‘lgan iliq aloqalarini diplomatik tarzda o‘rnatishga harakat qilganini ko‘ramiz. Boburning diplomatik qarashlarini belgilashda uning davlat boshqaruvidagi bir nozik jihati – jamiyat, saltanatidagi mavqeiga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib yondashish zarur. Bobur temuriylar xonadoniga mansub har qanday shaxsni himoya etish, uni afv etish, qo‘lidan kelgan ko‘makni yetkazish, mol-mulkiga daxl etmaslikni qonun qatorida bilgan. Bu uning diplomatiyasi bosh mezoniga aylangan.

Bobur diplomatik munosabatlarining tarjimalarda aks etishi masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, buyuk hukmdor va mohir diplomat hayotiga nazar solib, uning diplomatik qobiliyati teran, mantiqan yuksak ekanligi va bu sohada olib borgan muzokara, majlis, suhbatlari asosan ijobiy yakun topilganligini qayd etish mumkin.

“Boburnoma” matnida tasvirlangan 1503–1504 yil voqealari murakkab bo‘lib, unda temuriylar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, ziddiyatlar, diplomatik kelishuvlar va munosabatlar Boburning Kobuldagi mashaqqatli yillari o‘z ifodasini topgan. Garchand, Xuroson va Movarounnahrda lashkarlar soni o‘ttiz mingdan oshgan, saltanati hududi Hisordan Qunduzgacha, ya‘ni bugungi Afg‘onistonning ko‘pgina viloyatlarini o‘z ichiga olgan bir vaqtda Boburga inisi Jahongir mirzoning xayrihohligi, yordami strategik ahamiyat va diplomatik kelishuvni kasb etar edi. Bobur dushmanlari ular o‘rtasiga nifoq solganlarini yaxshi bilgan. «Boburnoma»da ayni diplomatik vaziyat shunday tasvir etiladi: «Umid andoqturkim, ushbu kun tongla Xisravshohning jami' navkar va savdari kelib, podshoh qullug‘ini qabul qilg‘aylar. Anda bisyor mufattin ellar bor, misli Ayyubbekning o‘g‘lonlari va yana ham ba‘zilar borkim, bizning mirzolarning orasida hamisha yomonliq va fitnag‘a bois va muharrik edilar» (Boburnoma 2002; 103). Bu o‘rinda muallif o‘ta jiddiy diplomatik kelishuvga ishora etayapti. Ya‘ni bu diplomatik vaziyatni yumshatish va munosabatlarni barqarorlashtirish masalasi – Bobur va Jahongir mirzo o‘rtasidagi siyosiy munosabat hamda diplomatik vaziyat masalasidir. Bobur diplomatik vaziyatni ziyraklik bilan tushunib yetadi, nizoga yo‘l bermaslikka urinadi. Leyden-Erskin tarjimasida ushbu murakkab siyosiy, diplomatik, psixologik vaziyat quyidagicha aks ettirilgan. Asliyati matnidagi «anda bisyor mufattin ellar bor, misli Ayyubbekning o‘g‘lonlari va yana ham ba‘zilar borkim, bizning mirzolarning orasida hamisha yomonliq va fitnag‘a bois va muharrik edilar» jumlasini «that among them there were many seditious and turbulent men, such as the sons of Ayub Beg and some others, who had always been the movers and excitors of discord and enmity among the Mirzas» (ularning orasida isyonkor va fitnachi kishilar ko‘p, shuningdek, Ayyubbekning o‘g‘illari kabi ba‘zi boshqalar borki, ko‘chmanchilar va mirzolar orasiga qutqu solib adovat qo‘zg‘atadilar (MT) deb qayta yaratilgan. Tarjima matnida har bir so‘z, so‘z birikmasi va diplomatik terminga alohida e‘tibor qaratilgan. Bu o‘z navbatida matn ta‘sirchanligini oshirga ko‘mak bergan. Voqealar

⁵⁷ Nizomiddinov N.G’ “Buyuk Boburiylar tarixi”(XVI-XIXasr). –Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. – B. 85-86

bayonida diplomatik vaziyatni yumshatish va munosabatlarni saqlab qolishga qaratilgan, aniqlik usuli orqali ifodalangan tasvirlar alohida ahamiyat kasb etgan.

Leyden-Erskin tarjimasida «bisyor mufattin ellar bor» jumlasida «that among them there were many seditious and turbulent men» (ularning orasida isyonkor va fitnachi kishilar ko'p) deb tarjima qiladi. «Mufattin» so'zini «seditious and turbulent» (isyonkor va fitnachi) tarzida o'g'irgan. Tarjimon mahorati Boburga xos uslubda qo'llangan har bir so'z, gap va diplomatik terminni ma'nosini to'g'ri bera olganida ko'rinadi. Yana bir muhim jihat, «Boburnoma»ning eng muhim xossasi – diplomatik mahoratini yaxshi anglashda ko'rinadi. Ushbu «misli Ayyubbekning o'g'lonlari va yana ham ba'zilar borkim, bizning mirzolarning orasida hamisha yomonliq va fitnag'a bois va muharrik edilar» jumlasida «the sons of Ayub Beg and some others, who had always been the movers and excitors of discord and enmity among the Mirzas» (Ayyubbekning o'g'illari kabi ba'zi boshqalar borkim, ko'chmanchilar va mirzolar orasiga ixtilof solib adovat qo'zg'atadilar) deb qayta yaratilgan. Asliytdagi «yomonliq va fitnag'a bois va muharrik edilar» jumlasida «who had always been the movers and excitors of discord and enmity among the Mirzas» deb beriladi. Tarjima matni diplomatik jarayonlar va vaziyatning umumiy mazmun jihatidan «ko'chmanchilar va mirzolar orasiga ixtilof solib adovat qo'zg'atadilar» deb berilsa-da, grammatik transformasiyada g'alizlikka yo'l qo'yilgani seziladi.

A.Beverij tarjimasida «Mufattin el» diplomatik termini «sedition-mongers» (isyonkor xalq) deb tarjima qilinadi. «Boburnoma» muallifi ifodalagan tasvirlar tarjima matnida bir oz buzilgani matn tarjimasidan seziladi. Chunki «isyonkor xalq» termini umumlashtiruvchi xossaga ega va o'quvchi bundan butun boshli xalq Boburga isyon qilgan tarzida xulosalashi mumkin. Holbuki, Bobur ifodasida bu muayyan fitnachi beklar degan ma'noni beradi. Ushbu «that there were such sedition-mongers with them as the sons of Ayub Begchik, besides other who had been the stirrers and spurs to disloyalty amongst their Mirzas» (ular ichida ko'p fitnachi kishilar bor edi Ayyubbekning o'g'illaridek, boshqalardan tashqari uning mirzalari orasida hiyonatkorlikni qo'zg'atuvchi va ta'sirlantiruvchilar bo'lgan) deb qayta yaratiladi. Bunda tarjimon ushbu diplomatik termini ma'no ifodasini topishga erishgan. Voqealar tafsilotini va terminlar tarjimasini yanada ravshanlashtirib bera olgan V.Tekston bu jumla mazmunini boshqasi bilan semantik munosabatda tarjima qilar ekan, mohiyatiga chuqurroq kirishni uddalagan. Xususan, Bobur tasvirlagan murakkab diplomatik vaziyatning «He continued: «There is hope that today or tomorrow all of Khusrawshah's liege men will come and accept to serve you as padishah. However, some mischievous men there, like Ayyub's sons, and others have constantly fomented strife and dissent among our princes» (W.Thackston; 162) (Umid borki, bugun yoki ertaga Xusravshohning odamlari (qaram bo'lgan kishilari) sizning oldingizga kelishadi va podshohdek qabul qilib, xizmat qiladi. Shunga qaramay, ba'zi yaramas odamlar, Ayyubbekning o'g'illariga o'xshagan va boshqalari bizning mirzolar orasida hamisha g'alamislik qilib, nizo va kelishmovchilik chiqaradi (M.A) tarzida keng holatda o'g'irilishi ikkinchi jumlada berilgan diplomatik vaziyat mazmunini semantik jihatdan aniqlashtirishga xizmat qilgan. Ayni paytda, tarjimada Boburning ushbu tasviri yorqin aks etgan. Asliytdagi «podshoh qullug'ini» diplomatik termini bezaksiz tasvirda berilsa-da,

tarjimada «as padishah» (podshohdek) terminni tasvir imkoniyatini to‘la aks ettira olgan. «Boburnoma» matnidagi «misli Ayyubbekning o‘g‘lonlari» jumlasini «like Ayyub’s sons» (Ayyubbekning o‘g‘illaridek) tarzida ma'noviy jihatidan kengaytirib ko‘rsatilgan. Vaqtni anglatuvchi so‘zlar tarjima matnida «today or tomorrow» (bugun yoki ertaga) shaklida beradi. Bu aslyatdagi: «ushbu kun tongla» so‘zlari ma'nosidan bir muncha uzoqroq ma'noga ega bo‘lsa-da, bu aslyat matni pragmatikligiga bir oz to‘siq bo‘ladi.

Har uchala tarjima matnlarini qiyoslash natijasida tarjimonlarning diplomatik terminlarni tarjima matnlarida ifoda etishga harakat qilgani, muqobil variantlarni to‘g‘ri tanlay olgani, tarjima matni mukammalligiga erishgani, ba'zi o‘rinlarda ma'nodan chekinish holatlari ham uchrashi ma'lum bo‘lganini guvohi bo‘ldik. Boburning mohirona diplomatik munosabatlari xalqaro miqyosda davlat mavqeini yuksak darajada ekanligini belgilab beradi.

Diplomatiya sohasiga oid terminlar tarjimasining mezon va tamoyillari diplomatik faoliyatning asosiy shakllari diplomatik kongresslar, konferensiyalar yoki kengashlar; nota, memorandum, bayonot va hokazo shakllardagi diplomatik yozishma; xalqaro shartnomalarni tayyorlash va imzolash; davlatning elchixonalar va missiyalar orqali amalga oshiradigan chet eldagi vakilligi; xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish; tashqi siyosiy masalalar bo‘yicha hukumat nuqtai nazarini matbuotda yoritish kabilar tashkil etadi. Biz bilamizki, diplomatik muassasalar va ularning mas‘ul xodimlari diplomatik imtiyoz va immunitetlardan foydalanadi.

Diplomatiya sohasiga oid terminlarning tuzilishi, xususiyatlari va boshqa jihatlaridan kelib chiqqan holda diplomatik terminlarni quyidagicha tasniflash mumkin: 1. Sof diplomatik terminlar; 2. Umumadabiy so‘zlar bilan yoki boshqa terminologik sohadagi terminlar; 3. Umumadabiy so‘zlar; 4. Ikki tilli lug‘atda keltirilgan, lekin diplomatik termin sifatida belgi qo‘yilmagan va diplomatik lug‘atlarga kiritilgan so‘zlar.

Diplomatiya terminlari tizimidagi asosiy guruhlar o‘rtasida leksik-semantik guruhlar o‘rtasidagi darajalanish ham kuzatiladi: “diplomatik” faoliyat bilan bog‘liq terminlar guruhi; “konsullik” arxisemasiga ega terminlar guruhi; “xalqaro” munosabatlar sifatiga ega terminlar guruhi bo‘lib, shuningdek, qatlamiga, tarixiylikiga, uslubiy bo‘yoqdorligiga, qo‘llanish doirasiga nisbatan ham sistema leksemalari darajalanishi mumkin. Bunday jarayonda “diplomatik” darajalarning oshib borishiga ko‘ra leksemalar o‘zaro shu tartibda joylashadi va vakildan elchigacha “diplomatik” darajasi muttasil ravishda o‘sib borishi kuzatiladi.

Diplomatik terminlarni tasniflash va ularning sohalarda qo‘llanilishi jihatidan ularni sof diplomatik terminlarga va umumiste‘mol tildagi terminlarga bo‘linishiga asoslanadi. Bu tasnif va sohalarda ishlatilishi esa ularni o‘z navbatida ikkiga bo‘ladi: sof diplomatik terminlar va ikki taraflama terminlar, ya‘ni, ham diplomatik termin, ham umumadabiy so‘z hisoblanadi. Misol tariqasida ko‘radigan bo‘lsak: PERSON (inglizcha. persona -kerak, maqbul shaxs) diplomatik termin bo‘lib, qabul qiluvchi davlat tayinlanishiga va kelishiga rozi bo‘lgan diplomatik vakil tushuniladi. Elchi yoki konsullik vakolatxonasi rahbariga nisbatan agreman yoki ekzekvatura olish protsedurasi qo‘llaniladi. Boshqa diplomatik xodimlar uchun mamlakatga kirish vizasi berilishining o‘zi ulaming persona grata hisoblanishlarini bildiradi.

Preambula (inglizcha pre'ambule - so'zboshi) xalqaro shartnomaning kirish qismi. Konvensiyaning maqsadlarini yoritib beruvchi tushuncha bo'lib, uning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Preambulada, odatda, shartnoma imzolayotgan tomonlar sanab o'tiladi, shartnomani imzolashga undagan narsa, undan maqsad bayon etiladi. Bundan tashqari preambuladan konvensiyaga izoh berishda ham foydalaniladi. Preambula xalqaro hukumatlararo va boshqa tashkilotlar va konferensiyalar qarorlari (rezolyutsiyalari)da ham bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida jarayoni anglatuvchi terminlar ham o'ziga xos tarzda yo'nalishlari doirasida muhim ahamiyatga ega bo'lishini X.Narxodjayeva tadqiqot ishida ta'kidlaydi. Shu bilan birga ularning lingvistik xususiyatlarini keng talqin etadi⁵⁸. "O'zbek tilining izohli lug'ati" materiallari asosida qilingan statistik tahlil diplomatik terminlarning umum o'zbek adabiy tilida qo'llanish darajasi chastotasining pastligini ko'rsatdi. O'zbek tilining ikki jildlik izohli lug'atida diplomatiya termini quyidagicha tavsiflangan: "Diplomatiya – davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati"⁵⁹. "Diplomatiya – davlatning tashqi xalqaro siyosatini amalga oshirish, chet mamlakatlar bilan aloqa qilish sohasidagi faoliyati"⁶⁰, ushbu tushunchani ifodalashda o'zbek tilshunosligida diplomatik terminologiya yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar mazkur ikki lug'atga asoslanadi⁶¹.

Diplomatik terminlar tarjimasini amalga oshirish jarayonida milliy, xususiy va umum yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bunday yondashuvga ega bo'lgan terminlarga matn ichida yoki satr ostida izoh berish talab etuvchi leksik birlik sirasiga ham kiritishimiz mumkin. Diplomatik terminlarni tarjima qilishda quyidagi mezonlarga asoslanish lozimligini tarjimalar tahlili jarayonidan ko'rsatishimiz mumkin: 1) o'zgarishsiz qabul qilingan o'zlashgan so'zlar: Bloc – blok, Annexation – Anneksiya, Convention – konvensiya; 2)matn ichida yoki sahifa ostida izoh talab etuvchi o'zlashgan so'zlar: Emergency Action Plan - favqulodda harakatlar rejasi; 3)turli tillarda keltirilgan terminlarga shu tilda izoh keltirish: Attaché – Attashe 4) tarjima tiliga yaqin bo'lgan so'z orqali ifodalash: Diplomatic Courier- diplomatik kuryer, diplomatic Corps- diplomatik korpus. Diplomatik terminlarning tarjimalarini ayrim hollarda maxsus so'zlar orqali berish, ba'zi terminlar orasida katta farq borligi tufayli o'zini oqlamasligi mumkinligini tahlillar natijasidan aytishimiz mumkin. "Diplomatik faoliyat nuqtayi nazaridan quyidagi lug'atlarning yaratilishi soha taraqqiyoti uchun ulkan xizmat qiladi: 1)"O'zbek diplomatiya terminlarining izohli lug'ati"; 2)"O'zbek diplomatiya terminlari va

⁵⁸ Narxodjayeva X. O'zbek tilida jarayon anglatuvchi terminlarning lingvistik xususiyatlari. Filol.f.f. dok.diss.avtoref. – Toshkent, 2017. – B.25

⁵⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I том. 3.Мағруфов таҳрири остида – М: Русский язык, 1981. – Б.228.

⁶⁰ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 624

⁶¹ Иномхўжаев С. Нотиклик санъати асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – Б.9.; Арипова А. Нотиклик нутқининг лисоний-услубий воситалари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2002. 186 б.; Тўрахўжаева А. "Дипломатия" архисемали лексемаларнинг семантик таҳлили // «Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари» Республика илмий ва амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2010. – Б. 75.

boshqa tillarning ikki yoki ko'p tilli tarjima lug'ati"; 3)"O'zbek diplomatiya terminlarining ideografik lug'ati"; 4)"O'zbek diplomatiya terminlarining elektron, tezaurus lug'ati"; 5)"O'zbek diplomatiya terminlarining cho'ntak lug'ati"; 6)"O'zbek diplomatiya terminlarining o'quv lug'ati (maktab ta'limi, OTM)"⁶² kabilardir. Shuningdek, mavjud izohli lug'atlarda maxsus terminlarning barchasini topishning iloji yo'qligi ham tarjimalarda bir qancha muammolarni yuzaga keltirishi mumkinligini ko'rsatib, maxsus tarjima lug'atlar yaratish tarjimaning leksikografik muammolarini bartaraf etadigan asosiy faktorlardan biri ekanligini qayd etishimiz mumkin.

Tarjimalarini amalga oshirish va ularni tahlil etish hamda leksikografik tomonlariga to'xtalish chog'ida quyidagi tamoyillarni belgiladik: 1)Turli tillarda bo'lgan diplomatik terminlar transliteratsiya va transformatsion usullar asosida tarjimalari amalga oshganligini aniqlash; 2)diplomatik terminlarni tarjimasida uchraydigan terminlarni leksik, semantik va pragmatik tomonlarini keng ochib berish; 3)diplomatik terminlar tarjimasini adekvat tarjimaga erishishda maqbul usullarni tanlash; 4)diplomatik terminlar tarjimasida tadqiqida sharh va izohlarni ham muhim ahamiyat kasb etishi kabilar. Ingliz va o'zbek tilida diplomatik terminlarga oid terminlar umumadabiy tilda ham qo'llanilsada, diplomatik sohada ular chuqurroq ma'noga ega bo'ladi. Shuningdek, so'zlashuv uslubida qo'llanilmaydigan sof diplomatik so'zlar ham bo'lib ulardan foydalanayotganda ehtiyotkorlik zarur va albatta diplomatik terminlar lug'atidan foydalangan ma'qul.

XULOSA

1. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar tahlili va tavsifi har bir kasbiy faoliyatning u yoki bu sohalariga oid terminologik birliklardan foydalanish jarayonida «terminosfera» tushunchasining chastotalik xarakterga egaligini va intensiv ishlatilishini, shuningdek, terminologiya keng ma'noda umumadabiy leksikaning bir qatlami bo'lib, ijtimoiy hayotning turli sohalarida qo'llaniladigan terminologik birliklar majmui ya'ni tor ma'noda fan yoki texnika, ishlab chiqarishning ma'lum bir sohasiga oid terminlar tizimi yig'indisini tashkil etishi ochib berildi;

2. Jahon va mamlakatimiz tilshunosligida terminologiya va terminlar to'g'risidagi fikrlarning shakllanishi, bugungi kungacha bo'lgan davrda terminologiya fan sifatida kattagina tarixiy evolyusion yo'lni bosib o'tganini ko'rsatdi. Shuning uchun tilshunoslikda terminologiya muammolarini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Terminga berilgan ko'plab ta'riflar, termini o'rganishga, uning o'ziga xos xususiyatlari, qo'llanish sohalariga, terminologik lug'atlarni yaratishga oid nazariyalarning xilma-xilligi fikrimizning tasdig'idir. G'arb va Sharq tilshunosligida ko'plab fikrlar, munozaralar mavjud: termin maxsus ma'noga ega bo'lgan leksik birlik va terminologiya leksikologiyaning bo'limi sifatida o'z o'rniga egaligi aniqlandi;

⁶² Mavlyanov Sanjar Djambulovich. O'zbek tili diplomatik terminlari. Filol f.f.d diss...avtoref. – Toshkent, 2022. – B.22

3. Diplomatik terminlarining hosil bo'lishi va shakllanishining asosiy manbalari tilning ichki va tashqi resurslari hisobiga vujudga keladi. Diplomatika terminologiyasida boshqa tillardan so'z o'zlashtirish yuqori darajada ekanligi ilmiy va nazariy jihatdan asoslandi. Diplomatika sohasiga oid terminlar esa bevosita tashqi siyosat integratsiyalashuv jarayoni bilan bog'liqligi bilan izohlandi.

4. Tilshunoslikda diplomatik terminlarning leksik-semantik, struktur-semantik xususiyatlari o'ziga xosligi bilan izohlandi. Terminologik birliklarining o'ziga xos jihatlari, ularni keng va tor qamrovdagi leksik-semantik, grammatik, stilistik ma'nolarini ajratish, til me'yorlarini saqlagan holda to'g'ri qo'llash va to'g'ri tarjima qilishni ta'minlash muhim ahamiyatga egaligi isbotlandi. Terminni o'rganishda turlicha yondashuvlar mavjudligi, terminlarni ta'riflashning turli aspektlarini hisobga olgan holda, ularga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy muhit, termin hosil qilishning o'ziga xosliklari, terminlarni sohalararo integratsiyasidagi ishtirokini inobatga olgan holda tizimlashtirish va yagona ilmiy tasnifini ishlab chiqilishiga olib keldi.

5. Xulosa sifatida mazkur tadqiqot ishimizda ona tilimizdagi diplomatika leksikasi asosiy negiz sifatida dastlab lotin va grek tillaridan, keyinchalik fransuz va ingliz tillaridan kelib chiqqanligi, o'zlashgan leksik birliklar yetarlicha mavjud yekanligi va bu soha leksikasini qaytadan isloh qilish davr talabi ekanligiga ishonch hosil qilindi. Shuningdek, ushbu diplomatika leksik birliklari morfologik nuqtai-nazardan qaysi so'z turkumiga qarashlilik aniqlanib, chog'ishtirilayotgan fransuz, ingliz va o'zbek tillarida guruhlariga ajratilib tasnif qilindi hamda statistik tahlil natijasi ko'rsatildi.

6. Tilshunoslik sohasida olib borilgan ilmiy urinishlar samarasi o'laroq, turli xil sohalar, shu jumladan, diplomatika sohasi terminologiyasi tarkibida sinonimik paradigmalar mavjud ekanligi isbotlandi va soha terminologik tizimi tarkibida sinonimiyani o'rganish dolzarb masala ekanligi oydinlashdi.

7. Diplomatika sohasiga oid terminlari tuzilmasini va ularning ta'riflarini tartibga solish, uyg'unlashtirish, qayta ishlash o'z navbatida, ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish yo'lida iqtisodiyotni intensivlashtirishning zamonaviy sharoitida juda muhimdir. Katta terminologik massivlarni tarkibiy tashkil etish uchun terminologik ma'lumotlar banklari yaratiladi, ularda kompyuter yordamida terminologik ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va berish amalga oshiriladi.

8. Diplomatik terminlar Bobur Hindistonda olib borayotgan davlat boshqaruvi jarayonida, turli davrlararo birdamlikni saqlash, xalqni birlashtirish, turli hokimliklardagi vaziyatni yumshatish borasida ko'plab diplomatik to'siqqa duch kelgan vaziyatda, Boburning yuksak odamiylik va insonparvarlik aqidasi, diplomatik munosabatda noziktablik bilan faoliyat olib borganligini ifodalovchi ayrim voqealar tafsilotida o'z ifodasini topganligi, misollar orqali aniqladi.

9. “Boburnoma” matnida Bobur mirzoning diplomatik munosabati tasviri tarjimasini Leyden-Erskin va A.Beverij biroz erkinlik va ijodiylik bilan tarjimaga yondoshgan, shu sabab tarjimada ba'zi nomuvofiqliklarga yo'l qo'ygan V.Tekston esa uni sodda, aniq qayta yaratgani tarjimalarni bir-birlari bilan chog'ishtirish jarayonida isbotlandi.

10. Diplomatiya sohasiga oid terminlarni tarjimalarga ko'chish jarayonida sharh va izohlar ham o'ziga xos o'ringga ega bo'ladi, bunda tarjima tilida berishda o'quvchiga matnni to'g'ri va tushunarli yetkazib berish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ba'zan bunday tarjimalarda tarjima matnini ko'payib ketishiga sabab bo'lgani bois bularda kontekstual ma'noni o'quvchiga to'g'ri va aniq yetkazib berish muhim hisoblanadi. Bularga biz tarjimalarni amalga oshirish vaqtida ham guvoh bo'ldik. Shu bilan birgalikda tarjimalarning mezon va tamoyillari belgilandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

МУСАЕВ АКМАЛБЕК ИБРАГИМДЖАНОВИЧ

**СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛО-УЗБЕКСКИХ
ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное
языкознание и переводоведение**

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ
Андижан – 2023**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за В2022.1.PhD/Fil2229.**

Диссертация выполнена в Андижанском государственном институте иностранных языков.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском и английском (резюме))
размещен на веб странице Научного совета (www.adu.uz) и Информационно-образовательном
портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:

Хошимова Дилдора Мадаминовна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Раупова Лайло Рахимовна
доктор филологических наук, профессор

Эргашева Гули Исмоил кизи
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2023 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD.03/29.12.2022.fil.156.01 при Андижанском государственном институте иностранных языков (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Бобуршох, 5. Тел.: (74) 223-42-76, факс: (74) 223-42-76 e-mail: asifl@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за № _____). (Адрес: 170100, г. Андижан, ул. Бобуршох, дом 5. Тел.: (74) 223-42-76).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2023 года.
(Реестр протокола рассылки №__ от «_____» _____ 2023 года.

Д.А.Рустамов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.н.,
профессор

А.Дж.Атабоев
Секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии по
филологическим наукам (PhD)

М.И.Умарходжаев
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сравнительно-типологический анализ терминов и лексем, связанных с дипломатией, в мировом языкознании на английском и узбекском языках позволяет выявить социальные факторы, влияющие на развитие этих языков, а также различные и сходные черты терминологии двух языков. В этой области можно наблюдать динамику роста эффективности научных исследований и широкого применения полученных результатов на практике.

В мировом языкознании необходимо провести значительную работу по изучению, дополнению и развитию области терминологии совершенно описательным и описательным образом. К числу таких относятся аспекты терминологического поля, изучение семантики и типов терминов, определение структурно-семантических особенностей и создание электронного словаря терминов, относящихся к сфере дипломатии, на англо-узбекском языках. Студенты, изучающие дипломатию в высших учебных заведениях, получают возможность развивать и совершенствовать эти профессиональные навыки, а для освоения выбранной специальности им необходимо будет углубленно изучать профильные предметы.

Для изучения терминов, связанных со сферой дипломатии в нашей стране, формированием и развитием навыков и квалификации специалистов в этой области, определением задач и целей, методов, видов и параметров их работы в этой области на основе зарубежного опыта, им необходимо в совершенстве владеть терминами этой области.

Данная диссертация в определенной степени служит реализацией Постановления Президента Республики Узбекистан от 17 февраля 2017 года № PQ-2789 «О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук, организации, руководству и финансированию научных исследований», Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 11 августа 2017 г. «О мерах по дальнейшему повышению качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», PQ-3654 от 5 апреля 2018 г. «О дальнейшем совершенствовании деятельности Министерства иностранных дел Республики Узбекистан «Об организационных мерах», Постановления Президента Республики Узбекистан №ПФ-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по коренному повышению престижа и положения узбекского языка как государственного», Указа №ПQ - 5117 от 19 мая 2021 г. «О мерах по выводу деятельности по популяризации обучения иностранным языкам на новый качественный уровень» и других нормативно-правовых документов.

Соответствие исследования приоритетам развития науки и техники республики. Исследование проведено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий «Социально-правовое, экономическое, культурное, духовно-образовательное развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики» республики I.

Уровень изученности проблемы. Проведен ряд исследований в области узбекского, русского¹, английского и других языкознаний, общей и частной терминологии, а также в области дипломатии.

В указанных источниках изучаются только историческое происхождение дипломатических документов, структурные особенности дипломатических документов. Однако всем известно, что сфера применения дипломатических терминов не ограничивается смысловым полем документов. В данной исследовательской работе впервые ставится вопрос изучения дипломатических терминов не только документов, но и дипломатической деятельности, дипломатического персонала, международных конференций и других лексико-семантических аспектов.

